

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING
TEXNOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI****Komiljonova Guluzraxon Nizomjon qizi***Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası v.b.dotsenti*E-mail: komiljonovaquluzra6@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:12.09.2025**Revised: 13.09.2025**Accepted:14.09.2025***KALIT SO'ZLAR:***ta'lim, boshlang'ich
ta'lim, bo'lajak
o'qituvchi, bilim,
ko'nikma, malaka,
kompetensiya,
texnologik
kompetensiya,
shakllantirish.**ushbu maqolada kompetensiya, texnologik kompetensiya va boshlang'ich sinftexnologiya fani o'qituvchisining qobiliyati va malakalari haqida ma'lumotlar berilgan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining qanday qilib texnologik kompetensiyalarini oshirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Texnologiya o'qitish metodikasi fanida kompetentlikni oshirish bo'yicha bir necha usullar tavsiya etilgan..*

Bugungi rivojlanayotgan davrda oliy ta'lim tizimida talabalarni nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan, ijodkor, tashabbuskor va mehnatsevar shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Bu borada texnologiya o'qitish metodikasi talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun texnologik kompetensiyaning shakllanishi ularning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda texnologiya darslari bolalarda ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash, qo'l

mehnatiga mehr uyg'otish va kasbga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, bu fan bo'yicha dars olib boruvchi o'qituvchining texnologik kompetensiyasi yuqori bo'lishi lozim.

Mazkur kompetensiya o'qituvchining quyidagi qobiliyat va malakalarini o'z ichiga oladi.

- Mehnat faoliyatining asosiy turlarini bilish: materiallar bilan ishlash (yog'och, qog'oz, karton, mato, plastmassa va h.k.), ularni qayta ishlash usullari va xavfsizlik qoidalariga amal qilish;

- Amaliy mashg'ulotlarni loyihalash va tashkil etish: o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni mazmunli tashkil eta olish turli ish qurollari bilan ishlay olishni o'rgatish;

- Kasb-hunarga yo'naltiruvchi faoliyatni olib borish: texnologiya darslari orqali o'quvchilarda to'g'ri kasb-hunar tanlashga yo'naltirish va ijobiy munosabat shakllantirish;

- Ijodiy ishlanmalarni rag'batlantirish: bolalarning mustaqil loyihalar ustida ishlashini qo'llab-quvvatlash, ularni ijodiy fikrlashga undash;

- Ekologik va iqtisodiy ongini shakllantirish: texnologiya darslarida bolalarda atrof-muhitga e'tiborli bo'lish va resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini tarbiyalash.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani nafaqat amaliy ko'nikmalarni o'rgatib, o'quvchilarda texnologik kompetensiyani shakllantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa bu jarayonda eng muhim vositachilardan biridir. Shu bois, o'qituvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish masalasi dolzarbdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisida texnologik kompetensiyani shakllantirishning asosiy maqsadlari:

- ✓ o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;
- ✓ amaliy ishlarni rejalashtirish va bajarish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ✓ oddiy texnologik jarayonlarni tushuntirish va bajarishga o'rgatish;
- ✓ ijodkorlik va texnik tafakkurni rag'batlantirish.

Boshlang'ich ta'limda texnologiya fani faqat an'anaviy qo'l mehnatini o'rgatish bilan cheklanmay, balki texnologik jarayonlarni tushuntirish, turli asbob-uskunalar bilan ishlashni o'rgatishni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda yangilanib borishi zarur. Texnologik kompetensiyalarning shakllanishi o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va texnik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu jarayonning boshqaruvchisi bo'lib, o'zining texnologik bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirib borishi lozim.

Texnologik kompetensiya — bu o'quvchining turli mehnat faoliyatlari orqali texnologik bilimlarni egallashi, amaliy ko'nikmalarni bajara olishi va mehnatga ongli yondashuvni shakllantirishdir. Kengroq qilib aytganda texnologik kompetensiya — bu o'quvchining:

- ✓ mehnat qurollari va asbob-uskunalaridan foydalana olishi;
- ✓ ish tartibini rejalashtirish va bosqichma-bosqich bajarishi;
- ✓ texnologik jarayonni amalga oshira olishi;
- ✓ bir nechta ijod namunalarini yarata olishi;
- ✓ toza, aniq va xavfsiz ishlay olishi;
- ✓ oddiy narsa-buyumlar tayyorlay olishi (qog'oz, karton, yog'och, mato, tabiiy materiallardan) kabilarni bilishi, bajara olishi va mas'uliyat bilan bajarishi deganidir.¹

Pedagogik jarayonni boshqaruvchisi bu albatta o'qituvchi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi jarayonni to'g'ri tashkil etib, dars davomida nazariy bilimlar asosida amaliy ko'nikmalarini oshirib kelajak faoliyatga to'g'ri yo'naltirish orqali texnologik kompetensiyalarini kuchaytirishga erishishi mumkin. Yuqoridagi berilgan fikr va ma'lumotlardan kelib chiqib quyida bir nechta tavsiyalarni berib o'tamiz.

- Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlariga ko'proq vaqt ajratish lozim, bunda talabalar o'z sohasiga tegishli bo'lgan uskunalar va texnologiyalar bilan ishlashni o'rganadilar, va bu ularning amaliy ko'nikmalarini oshiradi.

- Stajirovkalar va ishlab chiqarish amaliyotlariga jalb etish orqali talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha korxona va tashkilotlarda kasbiy muhitga moslashish va amaliy tajriba orttirish.

- Kasbiy o'quv kurslarida o'qishga jalb etish ham foydali chunki, qisqa muddatli kurslar orqali talabalar aniq bir kasbiy ko'nikmalarni o'rganishlari va sertifikat olishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda fanga oid bilimlarini ham kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- Mustaqil ish va ilmiy-tadqiqot faoliyati bu- talabalarning mustaqil ravishda ma'lum bir masalani o'rganishi, tadqiqot olib borishi va natijalarni taqdim etishi ularning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

¹https://www.google.com/search?sca_esv=8c966bae1d54a914&biw=1920&bih=893&sxsrf=AE3TifMw2VJGfT2GY_DnhynjuaTZHQOzA:1756879551175&q=G.N.+Komiljonova.+BO+LAJAK+BOSHLANG%CA%BBICH+SINF+O+QUVCHILARINING+TEXNOLOGIK+KOMPETENTLIGINI+SHAKLLANTIRISH+.+Inter+Education+%26+Global+Study,+no.+6,+2025.+URL:+https://researcher.uz/docs/bo-lajak-boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarining-texnologik-kompetentligini-shakllantirish-332298&sa=X&ved=2ahUKEwLl76s9ruPAxVQHhAIHaZ9OrIQgwN6BAgOEA

- Kasbga yoʻnaltirish tadbirlarini tashkil etish. Universitet va kompaniyalar oʻrtasida hamkorlikda oʻtkaziladigan tadbirlar, jumladan, “ochiq eshiklar kuni”, taqdimotlar va ishga joylashtirish yarmarkalari.

Bu usullar talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini beradi. Shu bilan bir qatorda tajribali mutaxassislarning talabalarga rahbarlik qilishi, ularga maslahatlar berishi va kasbiy yoʻl koʻrsatishi eng muhimlaridan biridir.

Xulosa. Boʻlajak boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarining texnologik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy taʼlimning muhim talabi hisoblanadi. Ular faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mashgʻulotlarni sifatli tashkil etish, oʻquvchilarni ijodkorlikka va mehnatsevarlikka yoʻnaltirish salohiyatiga ega boʻlishlari lozim. Shuningdek, taʼlim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish texnologik kompetensiyani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi

Foydalangan adabiyotlar

1. Tilavova M. Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi [Matn] : oʻquv qoʻllanma / M. Tilavova.- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni (23.09.2020 yildagi OʻRQ-637-son) <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Matlab Tillavova. Texnologiya va uni oʻqitish metodikasi. Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b.
4. Rasulova, Z.D., Quliyeva, Sh.H., Joʻrayev A.R. Texnologiya fanini oʻqitish metodikasi [Matn] : Oʻquv qoʻllanma / Z.D. Rasulova, Sh.H. Quliyeva, A.R. Joʻrayev.- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 384 b.
5. G.Komiljonova. Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Oʻquv qoʻllanma. 2025.
6. G.N. Komiljonova. (2025). BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINIF OʻQITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH . Inter Education & Global Study, (6). Retrieved from <https://researcher.uz/docs/bo-lajak-boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarining-texnologik-kompetentliligini-shakllantirish-332298>
7. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BOʻLAJAK BOSHLANGʻICH SINIF OʻQITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK

MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>

8. Madinabonu Shuxratjon qizi, & Esonaliyeva Guluzra Komiljonova. (2023). INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 788–789. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.717>

9. Abduraxmonova, N. A. qizi. “BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA”. Educational Research in Universal Sciences, vol. 2, no. 12, Dec. 2023, pp. 208-11, <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>.

10. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from

11. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.

12. Nigoraxon, Abduraxmonova, and Alijonova Mohlaroy. "BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 3.1 (2024): 83-87.

13. Kalendarova, Z. K. (2024). INTEGRATSIYA NEGIZIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION, 1(2), 189-195.

14. G.N. Komiljonova. "BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH ." Inter Education & Global Study, no. 6, 2025. URL: <https://researcher.uz/docs/bo-lajak-boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarining-texnologik-kompetentliligini-shakllantirish-332298>

15. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG‘LANISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>

16. Otto, M., & Thornton, J. (2023). FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 187-192. Otto, Mark, and Jacob Thornton.

"FANLARARO BOG‘LANISHLAR ASOSIDA TALABALARNI BILIM VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH." QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 9 (2023): 187-192.

17. Komiljonova Guluzrakhan Nizamjon kizi. (2025). FUTURE ELEMENTARY CLASS TEACHERS TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN DEVELOPMENT INNOVATIVE APPROACHES. Journal of Applied Science and Social Science, 15(06), 874–880. Retrieved from

<https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/1395>

18. <https://scientific-jl.com/tal/article/view/17408>

19. Diyoraxon, S., & Komiljonova, G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA CHET EL O ‘QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 783-785.

20. Boymirzayeva, S. (2025). TARBIYALANUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA ULARNI MAQSADLI RIVOJLANTIRISH USULLARIGA QARATILGAN O ‘YIN TEXNOLOGIYALARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 136-139.

21. Komiljonova Guluzra, & Mahmudjonova Sevaraxon. (2024). BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISHDA TEXNALOGIYA TA’LIMINING O‘RNI. University Research Base, 282–287. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/91>.